

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA AQLIY TARBIYANING ROLI

O'razboyeva Madina

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Ilmiy rahbar: Ro'ziyeva Nasiba Kenjayevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda aqliy tarbiyaning o'rni haqida so'z yuritilgan

Kalit so'zlar: aql, sezgi, idrok, tafakkur, xayolni bilish jarayonlari, aqliy rivojlanish

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi deb ko'rsatib o'tilgan, Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan 3-modda 5-bandida

Yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan obyektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biridir. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatishdir. Shundan ko'rinib turibdiki, aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi bo'lib, u yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, ko'nikma, malaka, me'yorlar, qoidalar va boshqalarda ro'y beradi. Bu holat katta insonlar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishida SHarq va G'arbning qomusiy olim va pedagoglarining o'rni kattadir. Markaziy Osiyolik mashhur allomalar: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o'zlarining qator asarlarida ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor bilan qaraganlar. Faylasuf olim Forobiy o'zining «Fozil shahar kishilarining qarashlari» asarida tarbiya orqali' insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab beradi.

Abdulla Avloniy esa tarbiya haqida g'oyat ibratli fikrlarni bildiradi. «Pedagogika — Abdulla Avloniyning yozishicha, — bola tarbiyasining fani, demakdir». «Dars ila tarbiya ikkisi jon ila tan kabidir», «Dars oluvchi—biluvchi, tarbiya oluvchi—amal qiluvchidir». Bu erda pedagogika faniga qisqa va lo'nda

ta'rif berib, ta'lim bilan tarbiyani esa jon bilan tanga o'xshatib, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab bergan. Avloniyning ta'kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug'ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi.

Bu sohada Sharq va G'arb xalqlari yaratgan og'zaki ijodiyot, buyuk mutafakkir, pedagog va olimlarning ta'lim-tarbiyaga doyr ilg'or fikrlarini o'rganib, tahlil qilib, barkamol insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish biz uchun juda qimmatlidir:

— ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni bolalar bog'chalari amaliy hayoti bilan bog'lab, bo'lajak tarbiyachi — o'qituvchilarga o'rgatish, hamda xalq ta'limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib, bo'lajak tarbiyachilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish;

— maktabgacha tarbiya muassasalarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish.

Bunday vazifalarda tadqiq etish:

— birinchidan, bolalar sog'lig'ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi;

— ikkinchidan, ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivojl antiradi;

— uchinchidan, Vatanga, tabiatga, jonajon o'lkaga muhabbat, kattalarga hurmatni, o'rtoqlik va jamoatchilik, xayrixohlik, xulq madaniyati, mustaqillik, uyushqoqlik va intizom, mehnatsevarlik kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi;

— to'rtinchidan, estetik tarbiyani amalga oshiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir.

Xulosa qilib aytganda, katta yoshdagi bog'cha bolalariga har bir bayram va tantananing ahamiyatini ularning yoshlariga mos holda tushuntirishadi. Bu o'rinda tarbiyachining vazifasi — bolalarning hissiyotlarga ta'sir etib, ularda o'z xalqidan hamda uning qadriyatlaridan g'ururlanish hissini shakllantirishdan iboratdir. SHunday qilib, bog'cha bolalarini tabiat, hozirgi davr voqealari bilan tanishtirish orqali ularning aqliy qobiliyati, axloqiy va estetik hislari shakllanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiyaga juda katta e'tibor qaratish lozim. Bolani yetuk shaxs bo'lib kamol topishi uchun avvalambor ota-onalar bolalarga e'tibor berishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. P. YUsupova. — T., «O'qituvchi». 1993. A. Minavvarov Pedagogika. — T., «O'qituvchi». 1996.
2. Yu. P. Azlarov Bolalarni sevish san'ati. — T., 1992.

3. Ruzieva Nasiba Using games and free language learning APPS in foreign language classes through new innovative approaches to foreign language teaching. In volume 11, Issue 1, January, 2023. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ).